

So'zumni o'qub, sog'ingaysan o'zumni!



Zahiriddin Muhammad Bobur

www.tongyulduzi.uz

# TONGYULDUZI

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

## yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2011-yil  
14-fevral  
N:7  
(66808)

ISSN - 2010-6092

Qashqadaryolik bolalar va o'smirlarga bag'ishlangan  
**maxsus son**

Tezkor xabarlar

### TABRIKLAYMIZ!

Ushbu sonni tayyorlash jarayonida bir-biridan quvonchli voqealar ko'p bo'ldi. Xalqaro Standartlashtirish tashkiloti (ISO)ning qaroriga binoan «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyiga «Xalqaro sifat menejmenti - ISO 9001: 2008» sertifikatini berildi. Nashriyot rahbarlari-yu ishchi-xizmatchilarini siz aziz bolajonlar nomidan tabriklaymiz.

Bu xushxabar haqidagi kengroq ma'lumot bilan keyingi sonimizda tanishasiz.

Har oyning o'ziga xos xislati bor.  
Fevral oyi shunday serfayz oylardan biri.  
Bu oyda adabiyotimizning ikkita buyuk dahosi tavallud topgan kun.  
Bobomiz Hazrat Alisher Navoiyning 570 yillik to'yi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning 528 yillik to'yiga ulanib ketdi.  
Bundan zavqlangan tabiat biz orziquib kutgan ohqog qortarni oq qog'ozdek borliqqa yozdi...

### Bir qor yog'diki...

Xorazmdan yana bir xabar oldik. U quyidagicha: Keksalar yaqin yillar ichida Xorazm tomonlarda bunday qalin qor yog'ganini eslashmadi. Bir yarim kun yog'gan qorning qalinligi 40-50 sm.gacha, ayrim joylarda esa 60-70 sm.gacha bordi. Hammayoqni oppog, qalin qor qopladi. Dalalar, bog'lar, cheksiz Qoraqum barxanlari qor qo'ynida qoldi.

Bu qor dehqonlarga omad olib keldi. Yerlarning sho'rini yuvish uchun ekin maydonlariga ikki-uch marta suv oqizishardi. Tabiatning bebaho in'omi ana shu obi-hayotni tejab berdi. Dehqonlar ham suvdan yutishdi, ham vaqtdan.

Ayniqsa, kuzda ekilgan g'allaga juda zo'r bo'ldi. Endi ko'm-ko'k maysalar qor suvidan to'yib-to'yib ichishadi. Demak, hosil yanada mo'l bo'ladi.

Yil boshida ota-bobolarimiz qor yog'sin, deb niyat qilishgandi. Shunday bir qor yog'diki, esda qolarli.

Nurisлом RAZZOQOV,  
o'quvchi

«Nuriston»dan  
ANF  
yog'ilar

4-bet

Bolalik  
sog'inchi

5-bet



ZAHIRIDDIN  
MUHAMMAD BOBUR

## TEST

1. Zahiriddin Muhammad Boburning aruz haqidagi asari qanday nomlanadi?

- a) Mubayyin;
- b) Mufassal;
- c) Munshoat;
- d) Mezonul avzon.

2. Boburning arab alifbosiga bag'ishlab yozgan asari qanday atalgan?

- a) Risolai aruz;
- b) Munshoat;
- c) Xatti Boburiy;
- d) Alifboi Boburiy.

3. Bobur Alisher Navoiy haqida nima deb yozgan?

- a) g'azal mulking sultoni;
- b) she'riyat mulking sultoni;
- c) o'zbek tilining asoschisi;
- d) turkiy tilda «ko'p va xo'b» yozgan.

4. «Chog'irni ko'p ichmas edi, bir ichsa, bosib ichar edi...» Ushbu so'zlar «Boburnoma»da kim haqida aytilgan?

- a) Husayn Boyqaro haqida;
- b) Umar Shayx Mirzo haqida;
- c) Mirzo Ulug'bek haqida;
- d) Alisher Navoiy haqida.

5. Boburning katta o'g'lining ismi kim edi?

- a) Ulug'bek;
- b) Kamron;
- c) Davlatshoh;
- d) Humoyun.

6. «Humoyunnoma» asarining muallifi kim edi?

- a) Humoyun;
- b) Kamron;
- c) Gulbadanbegim;
- d) Guloyimbegim.

7. Bobur o'z lirikasini qaysi vaznda yozgan?

- a) aruz vaznida;
- b) barmoq vaznida;
- c) erkin vaznda;
- d) sarbast vaznida.

8. Shoirning «Yoz fasli, yor vasli do'stlarning suhbatlari...» deb boshlanuvchi g'azali qaysi bahrda yozilgan?

- a) Ramal bahrida;
- b) Ramaz bahrida;
- c) Hazene bahrida;
- d) Muntoqadib bahrida.

9. Bobur kimning asarini she'riy yo'l bilan qayta yozgan?

- a) Alisher Navoiyning;
- b) Jomiyning;
- c) Husayn Boyqaroning;
- d) Xo'ja Ahrorning.

10. Bobur she'r bilan qayta yozgan asarning nomi nima edi?

- a) Volidiya;
- b) Vaqfiya;
- c) Ixlosiya;
- d) Munshoat.

Qashqadaryo viloyati Xalq ta'limi tizimida 1559 ta ta'lim muassasalari bo'lib, shulardan 1117 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari, 378 ta maktabgacha, 44 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, 3 ta «Mehribonlik uylari» hamda 18 ta musiqa va san'at maktablaridan iborat.

Mazkur umumta'lim maktablarida 522261 nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladi. Ularga 52617 nafar o'qituvchi saboq beradi.

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi umumta'lim maktablarida 15621 ta fan to'garagi mavjud bo'lib, mazkur to'garaklarda 312422 nafar o'quvchi shug'ullanmoqda. Shu jumladan, 2112 ta kasb to'garagi mavjud bo'lib, unda 52812 nafar o'quvchi o'zi sevgan sohasida tahsil olmoqda.

## Bizlarning o'z o'rnimiz bor

Viloyat Xalq ta'limi maktabgacha ta'lim muassasalarida 30441 nafar farzandlarimiz tarbiyalanmoqda. Mazkur muassasalarda «Milliy o'yinchoq va rivojlantiruvchi o'yin materiallari» ko'rik-tanlovi o'tkazildi. G'olib deb topilgan Muborak tumanidagi 1-, 2-, 3-maktabgacha ta'lim muassasalari Respublika bosqichida ishtirok etdi.

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiyalanuvchilarning Davlat talablarini o'zlashtirish monitoringi tayyorlanib, Respublika Xalq ta'limi vazirligiga taqdim etildi.

«Bolalar farovonligini ta'minlash mintaqaviy harakat dasturi»ni MTMga taqdim etish borasida olib borilayotgan ishlar bo'yicha fotoalbom tayyorlandi.

«Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi – 2010» ko'rik-tanlovining Respublika bosqichida viloyatdan 13 ta fan yo'nalishida g'oliblar ishtirok etib, iqtisodiy bilim asoslari fani ishtirokchisi, Shahrisabz tumanidagi 34-maktab o'qituvchisi Xurshid Boqiyev hamda Qarshi shahridagi 19-maktab rus tili fani o'qituvchisi Gulshoda Xushmanova g'oliblikni qo'lga kiritib, «Respublika xalq

ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy Hazratlari tavalludiga bag'ishlab «So'z mulking sultoniga ehtirom» mavzusida adabiy-badiiy kechalar bo'lib o'tdi.

Shuningdek, tashabbuskor, izlanuvchan, sportni sevuvchi o'quvchilarni tanlab olish maqsadida barcha ta'lim muassasalarida

«Eng yaxshi dars ishlashmasi», «Eng faol o'qituvchi», «Eng yuqori ko'rsatkichga ega sinf» kabi ko'rik-tanlovlar o'tkazildi. Ushbu tadbirlar tafsilotlari Qashqadaryo teleradiokompaniyasi, viloyat gazetalari yoritildi.

Qarshi shahri, Nishon, Muborak, Kitob, Yakkabog' tumanlarida 19 ta fandan, Dehqonobod tumanida 16 ta fandan jami 254 nafar ustoz belgilanib, ularga 762 nafar shogirdlar birlashtirildi. Shogirdlarning biri o'zi ishlayotgan maktabdan, qolgan ikki nafari qo'shni maktablardan tanlandi.

O'tgan yili respublika fan olimpiadasida jami 605 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Viloyat vakillari 6 nafar sovrinli o'rin hisobiga respublikada 3-o'rinni qo'lga kiritishdi. Kitob tumanidagi 22-maktab o'quvchisi Shahnoza Usmonova biologiya fanidan 3-o'rin, 2-IMI o'quvchisi Asror Ergashev huquq fanidan 3-o'rin,



Shahrisabz akademik litseyi o'quvchisi Kumushbibi Ma'murova kimyo fanidan 2-o'rin, Qarshi shahri KOBMMI o'quvchisi Rustam Teshaboyev matematika (maxsus) fanidan 1-o'rin, Mehri Arabova ona tili (maxsus) fanidan 3-o'rin, Dehqonobod tumanidagi 8-maktab o'quvchisi Husniddin Normurodov tojik tili fanidan 2-o'rinni qo'lga kiritib, oliy o'quv yurti talabasi bo'lish imtiyoziga ega bo'ldilar.

Olib borilgan amaliy ishlar natijasida o'quvchilarning bilim samaradorligi 2005-2010-yillarda 71% dan 76,2% ga o'sdi. Bu farzandlarimiz Respublikada ilm olish borasida o'z o'rnini, salohiyati borligining bir belgisi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining xulosasiga ko'ra, o'quvchilarning bilim samaradorligi Respublikada 4-o'rinda ekanligi qayd etildi.

Respublika Davlat soliq qo'mitasi, Xalq ta'limi vazirligining qo'shma buyrug'iga asosan tumanlarda «Soliq bilimlari – bolalarga» ko'rik-tanlovi o'tkazilib, viloyat bosqichida 1-4-sinflar bo'yicha Qamashi tumanidagi 49-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi Bahrom Po'latov o'zining soliqqa oid chizgan rasmlari, Shahrisabz tumandagi 92-maktab o'quvchisi Nilufar Rahmatovaning yozgan inshosi yuqori baholanib, faxrli 1-o'rinni egalladi va respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

Bu kabi muvaffaqiyatlarimiz bizni, albatta, quvontiradi.

**Bolta KARIMOV,**  
Qashqadaryo viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi ta'lim markazi direktori vazifasini bajaruvchi



## SEVIN AKA

*Hech e'tibor berganmisiz, kattalar ko'pincha yosh bolalarni erkalagan chog'larida, «Katta bo'lsang kim bo'lasan?» deb so'rashni yoqtirishadi. Bolajonlar esa hamisha eng yaxshi kasblardan birini tanlagan bo'lishadi. Ammo vaqt o'tishi bilan ularning orzulari ham bot-bot o'zgarib turadi. Bu kezlarda ularning tabiatida beqarorlik bo'lib turishi tabiiy hol.*



## SEVINCHI

Qashqadaryo viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi ta'lim markazida tabiiy fanlar uslubchisi, «Axborot xizmati» markazi rahbari bo'lib xizmat qilayotgan Sevin Ochilovda o'qituvchilikdek sharafli kasbni tanlash juda yoshlik chog'larida uyg'ongan ekan. O'sha kezlarda orasta kiyingan, oq

ko'ylik, qora kostyum shimi-yu bo'yinbog'i o'ziga yarashgan o'qituvchilarni ko'rganda, ularga havas bilan qarab to'yasmish. Maktabga qatnay boshlagach esa bu havas asosiy maqsadga aylanibdi. O'z orzusiga erishish uchun qunt bilan o'qib-o'rgandi. Qarshi Davlat pedagogika institutining talabasi bo'lgan kun Sevin aka hayotidagi unutilmas voqea bo'ldi. Oliyohni a'lo baholarga bitirib, Kasbi tumanidagi 6-umumta'lim maktabida ish boshlagan kezlarda esa sira yodidan chiqmaydi. Kasbiga bo'lgan mehri bois o'ziga yuklatilgan vazifani sidqidildan bajarib, ko'pchilikning e'tiborini qozondi. Qaysi lavozimda ishlamasin, hamisha har bir ishni birinchilar qatorida bajarish, maromiga yetkazish uning asosiy shoriga aylandi.

Bu yillar davomida Sevin aka minglab shogirdlariga ustozlik qilib, ularning komil inson bo'lib voyaga yetishlarida xizmat qildi.

Kasbi tumanidagi 14-maktab direktori Sobir Iminov, 4-maktabdagi To'ra Shoyimardonov bilan eng yaxshi shogirdlari sifatida faxrlanadi.

Yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi birinchi darajaga ko'tarilgan bugungi kunda tajribali ustoz o'zgacha zavq bilan ishga kirishgan. Shogirdlarining har bir yutug'i unga kuch bag'ishlab, yangi-yangi g'oyalarga beradi.

O'quvchi do'stim! Kelajakda kim bo'lishingiz haqida hali o'yab ko'rmagan chiqarsiz. Ustoz haqidagi mo'jaz maqolamiz esa Sizning ham dilingizga cho'g' solgan bo'lsa, ajabmas. Balki siz ham o'qituvchi degan sharafli kasb egasi bo'lishni niyat qilgandirsiz?! Agar shunday bo'lsa, bu yo'lda sizga omadlar tilaymiz.


## KAMOLOL ASOSI

*Adabiyot yer yuzidagi jamiki xalqlarning o'tmishi, turmush tarzi, madaniyati-yu ma'naviyatini o'zida aks ettiruvchi, insoniyatni ezgulik sari chorlovchi bebaho boylik. Biz o'zbek xalqining ham dunyo xalqlari bilgan, o'z tillariga o'girib asrlar davomida o'qib kelayotgan bebaho xazinamiz milliy adabiyotimiz borki, biz u bilan har qancha faxrlansak arziydi.*

Bobomiz Hazrat Alisher Navoiyni biz faqat ulug' mutafakkir shoir, davlat arbobi sifatidagina emas, balki ilm-fan, madaniyat homiysi, bir so'z bilan aytganda, komil inson sifatida ham yaxshi bilamiz. Husayn Boyqaro in'om etgan Murg'aniy nomli so'lim maskanda Navoiy bobomiz «Ixlosiya» nomli madrasa va jome masjidini bunyod ettirgani manbaalarda yozilgan. Bundan tashqari, Hirotda «Nizomiya», «G'iyosiya», Marv shahrida «Xisraviya» nomli madrasa qurdirgan.

Shunday ekan, bobomizning har bir asari bizning ma'naviy kamolotimizga asos bo'lishiga shubhamiz yo'q. Aziz yoshlar, sizlarga ham Navoiy bobomizning asarlarini o'qishni tavsiya qilaman. Ushbu asarlarning tili biroz murakkab, lekin ularning nasriy bayonini o'qish sizga og'irlik qilmaydi.

Jobir ISMATULLAYEV,  
Koson tumani



Qarshi shahridagi 22-maktabdan G.Berdimurodova, Kasbidagi 17-maktabdan M.Hamidova, Shahrisabzdagi 91-maktabdan G.Hayitova, Nishondagi 2-maktabdan K.Xolyorova, Kitobdagi 2-maktabdan G.Xidirova, Muborakdagi 2-maktabdan X.Jumayeva, Mirishkordagi 2-maktabdan YA.Beknazarov, Qamashidagi 63-maktabdan Z.Xo'jaqulova, Kosondagi 9-maktabdan S.Saidova, Dehqonobodagi 85-maktabdan D.Nurmatova, Yakkabog'dagi 1-maktabdan S.Qo'chqorova, Chiroqchidagi 1-maktabdan N.Boboyeva, G'uzordagi

## MAS'ULIYAT



2 - m a k t a b d a n Z.Hasanova, Qarshi tumanidagi 52-maktab o'qituvchisi Z.Do'lobova kabi ustozlar o'zlariga munosib voris yetishtirishda katta natijalarga erishmoqdalar.

Mazkur o'qituvchilar faoliyat olib borayotgan maktablarda «Ustoz-shogird» ustaxonasi tashkil etilgan bo'lib, bu yerda ustoz va shogirdlarning mustaqil ishlari uchun keng sharoit yaratilgan. O'quv adabiyotlar, texnika vositalari, ko'rgazma qurollari bilan jihozlangan.

Yana shuni ham alohida ta'kidlashni istardimki, bugungi kunda «Ustoz-shogird» maktablari ta'limning birinchi darajali yo'nalishlaridan biri, deb qaralishi ustoz o'qituvchilarga yuklatilgan mas'uliyatning nechog'li katta ekanligidan dalolat bermogda.

Qursiya QO'LDOSHEVA,  
Qashqadaryo viloyati XTB uslubchisi

## AJABO!

*Gazetamiz sahifalanib bo'lganda, Ommaviy axborot vositalari yaponiyalik mutaxassislar tomonidan yangi o'yinchoq tayyorlanganini e'lon qilishdi.*

*Mazkur o'yinchoqni bir yo'la to'rt kishi o'ynay oladi. Tto'rt nuqtadan biriga barmog'ingizni qo'yib, do'stingiz bilan qo'llarga yoki peshonaga, yuzga sekin urib, o'ziga xos kuy yaratishingiz mumkin. O'yinchoq yaqin kunlarda savdoga chiqarilar ekan.*

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti qoshidagi «Nuriston» akademik litseyi fidoyi ustozlari-yu iqtidorli talabalari bilan namunalı bilim dargohlari qatoridan joy olgan. Ushbu maskanda talabalar gumanitar fanlar hamda xorijiy tillar bo'yicha bilim oladilar. Akademik litsey 720 o'ringa mo'ljallangan o'quv binosi hamda 300 o'rınli talabalar turar joyidan*

*iborat bo'lib, har bir fan bo'yicha o'quv xonalari zamon talablariga mos ravishda jihozlangan. Shu bilan birga, o'quv maskanida 3 ta kompyuter va 1 ta internet o'quv xonasi, 5 ta lingafon xonalari, barcha qulayliklarga ega bo'lgan 2 ta sport zali, jahon talablariga mos ravishda jihozlangan laboratoriya xonalari mavjud.*

## «Nuriston»dan nur yo'g'ilar



Talabani ulkan yutuqlarga erishishida litseyda faoliyat olib borayotgan ustozlarning mehnati beqiyos. Bugungi kunda akademik litseyda 75 nafardan ortiq tajribali o'qituvchilar o'quvchilarga bilim bermoqda. Ana shunday fidoyi ustozlardan R.Sodiqova «Sog'lom avlod» ordeni, A.Ergashev «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi», X.Ubaydullayeva «Shuhrat» medali, YU.Ergashev Oliy ta'lim a'lochisi,

G.Turdiyeva Qashqadaryo Xalq ta'limi fidoyisi, M.Bozorova, B.Uzoqov – ta'lim sohasidagi xizmatlari uchun taqdirlanganlar.

Akademik litseyini tamomlagan talabalarimizning aksariyati respublikamizning nufuzli oliy o'quv yurtlarida, xorijiy davlatlarda o'qishlarini davom ettirishyapti. Ana shunday ustoz-u shogirdlarni bir so'z bilan «Nuriston» yulduzlari, deb atagim keladi.

**Bahrom UZOQOV,**  
akademik litsey direktori



## ORZULAR MASKANI

Bilim dargohimizni «Orzular maskani» deb atagim keladi. Litseyimiz 3 qavatli, zamonaviy usulda qurilgan. Qarshi shahridagi eng ko'rkam binolardan biri bo'lmish o'quv maskanimizning surati qanchalar go'zal bo'lsa, siyrati bundan ham chiroyli.

Akademik litsey o'z ish faoliyatini 2000-yilda boshlagan.

Litseyimizda talabalar 4 ta yo'nalish bo'yicha bilim olishadi.

Aniq fanlar, tabiiy fanlar, ijtimoiy gumanitar va xorijiy tillar yo'nalishi. Talabalar fan sirlarini puxta egallashlari uchun 5 ta lingafon, 6 ta laboratoriya va 5 ta kompyuter xonalari bor. Kutubxonamizda 15.000 ga yaqin kitoblar mavjud.

O'quv dargohimizda biz ijodkorlarga radiouzel xonasi tashkil etilgan. Bu yer so'nggi rusumdagi apparatlar va kompyuter bilan ta'minlangan. Men ham shu radioda boshlovchilik qilaman. Eshittirishlarni besh tilda olib boramiz.

Bu borada men litseyimiz rahbari, tarix fanlari nomzodi Bahrom Uzoqovning nomlarini alohida ta'kidlab o'tgim keladi. O'zlari she'r yozadilar. Ular o'z o'rnida mehribon ota, qattiqqo'l ustoz timsolida bizni ijod olamiga yetaklaydilar.

Respublika «Yoshlar» radiosida «Muxlislar vaqti», «O'zbekiston» radiosida «Kelajak tongi» eshittirishlarda qatnashdim. Qashqadaryo televideniyesida hayotim va ijodim aks ettirilgan «Ilk qadam» nomli ko'rsatuv tayyorlanib namoyish etildi. «O'zbekiston» televideniyesining «Bir o'lkaki» ko'rsatuvida she'rlarimni o'qidim.

Hozirgi kunda «Bahor erta kelar Qashqadaryoga» nomli she'riy, «Guldasta» topishmoqlar, «Qasam urgan yigit» kabi hikoyalar to'plamimni nashrga tayyorladim.

«Onalar kuylaganda» ko'rik-tanlovida qatnashib, tumanda g'olib bo'lib, viloyat bosqichida ishtirok etdim. Men kuylagan «Alla» viloyat tanlovining timsoli bo'lib yangraganda, qanchalar hayajonlanganimni so'z bilan ifoda eta olmayman.

Orzularim yo'lida hozir o'zim o'qiyotgan litsey menga hamqadam va hamfikir bo'lmoqda.

**Dilxushbonu HAMROH,** 210-guruh talabasi

## Ismim qizg'aldoq

*Ismimni so'ramangiz, ismim qizg'aldoq,  
Tog'larning bag'rida o'sgan bir gulman.  
Tuproqlar ustida tashlabon yaproq,  
Shamolda silkinib turgan bir gulman.*

«Nuriston» o'zining nur taratuvchi bag'riga chorladi. Endigi maqsadim maktabda va shu litseyda olayotgan bilimlarimni yanada oshirishdan iborat. Hayotimning har bir daqiqasini qadriga yetib, oliy o'quv yurtlariga kirib, mustaqil Vatanimga munosib farzand bo'lmoqchiman. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «Mustaqil Vatanimiz kelajagi biz yoshlar qo'lida».

**Matluba MAHMUDOVA,**  
«Nuriston» akademik litseyining 1-bosqich talabasi



## HAMKORLIKDA GAP KO'P

Akademik litseyimizda yo'nalishlar bo'yicha to'rtta kafedra faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu kafedralar M.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent Davlat texnika universiteti, Qarshi MII, Qarshi DU, TATU Qarshi filiali kafedralari bilan shartnoma asosida ilmiy hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, Fransiya elchixonasi bilan turli mavzularda ilmiy-amaliy anjumanlar va ijodiy uchrashuvlar o'tkaziladi.

**Nafosat ODILOVA,**  
307-guruh talabasi

## SPORT MENING HAYOTIM

Bolaligimdan sportni yaxshi ko'raman. «Nuriston» akademik litseyi talabasi bo'lganimdan so'ng, ustozim Dilmurod Ismatullayev sababli sportning Muay-tay turiga qiziqib qoldim. Shundan so'ng, litseyimiz sport zalida mashg'ulotlarimni boshladim. Bu yerdagi shart-sharoitlarning to'kisligi bois, turli musobaqalarda faxrli o'rinlar sohibi bo'ldim. Men, albatta, bu yutuqlarim bilan chegaralanib qolmoqchi emasman. Kelajakda Yevropa mamlakatlarda bo'lib o'tadigan musobaqalarda ishtirok etib, yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarib, litseyim sharafini himoya qilaman.

**Sardorbek SAMADOV,** 305-guruh talabasi



## DO'ST

Do'st so'zini ko'p bora eshitganmiz, ammo bu so'zning asl mohiyatini tushunib yetamizmi? Ba'zilarining do'stligini ko'rib havas qilsak, ayrimlarini ko'rib hayron qoladi kishi. Aslida haqiqiy do'st qanday bo'lishi kerak?

Mening fikrimcha, bir-biriga ishongan insonlarning do'stligi haqiqiydir. Chin do'st yaxshi va yomon kunida do'sti yonida bo'lib, hamisha unga yordam qo'lini cho'zadi. Do'stiga hasad bilan emas, aksincha, havas bilan qarovchi insonlar haqiqiy do'stlar hisoblanadi. Ba'zida esa eng yaqin do'st dushmanga, dushman deb yurganimiz esa do'stga aylanadi. Bunga sabab, insonlarning boylik, go'zallik yoki boshqa manfaatlar uchun bir-biri



bilan do'st tutinishida deb bilaman.

Men o'z do'stlarimni dunyodagi eng yaxshi do'stlar, desam adashmayman. Ularning har bir fazilati chinakam do'stlikka asos bo'la oladi. Bizlar bir-birimizning muvaffaqiyatlarimizdan quvonamiz.

Istardimki, insonlar do'stni tashqi ko'rinishiga qarab emas, balki qalb go'zalligiga qarab tanlashsa!

**Go'zal YASHINOVA,**  
Shahrisabz tumanidagi  
98-umumta'lim maktabining  
8-«A» sinf o'quvchisi

## Bulutlar qayerda uxlaydi?

*Men bulutlarni kuzatishni yaxshi ko'raman. Olis-olislardan oppoq bulutlar suzib kelayotganini ko'rsam, ularning oppoq va momiqligiga havasim ortadi. Shunda menda bulutlar qayerda uxlashar ekan, degan savol tug'iladi. Bir kuni kechasi hovliga chiqib, bulutlar daraxtlar shoxiga yopirilib turganini ko'rdim. Shundan buyon bulutlar daraxtlar shoxida tunaydi, deb o'ylayman.*

**Javohir FAYZULLAYEV,**  
Qashqadaryo viloyati,  
Yakkabog' tumani



*Kasbi tumani, Pandron qishlog'idagi maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi Madina AZIZOVA chizgan rasmini «Ertaklar olami» deb nomlabdi.*

## Bolalik sog'inchi

Maymanoq nafaqat Kasbi tumani, balki Qashqadaryo viloyatidagi qadimiy qishloqlardan biri. Qishloq hududidan Buyuk Ipak yo'li o'tganligi, Murod baxshi ota, Sohib Mulla Jalol, Luqmoni Hakim, Umar Nasafiy... ziyoratgohlari, ko'hna sardoba olis tarixdan so'zlaydi. O'zbek xalq dostoni – «Yozi bilan Zebo» voqealari ham Maymanoq tog'i yon bag'rida kechganligini baxshilar avloddan avlodlarga yetkazib kelishyapti. Ana shu so'lim va bahavo maskanda bolaligimning shirin va unutilmas damlari kechgan.

Dastlab qishlog'imizdagi 4-umumta'lim maktabida, so'ng yangi tashkil etilgan 8 yillik 14-maktabda o'qiganmiz.

Alifbo saboqlarini Ramazon Ziyodullayevdan oldik. Mu'yassar Usmonova, Sa'dulla Rahimov, Rashid Nabiyev, Farida Ro'ziyeva (Oллоh rahmatiga olgan bo'lsin) kabi muallimlarimizning o'quvchilarga bo'lgan e'tiborini unutib bo'ladimi?! Hozir ham O'zbekiston Xalq ta'limi a'lochilari Normamat Tilakov, Homid Jaloliddinov, Abduvohid Shoymardonov va boshqa qadrlil ustozlarimiz bilan tez-tez muloqotlar qilib turamiz.

O'quvchilik paytlarimizda «Tong yulduzi» gazetasi o'zgacha zavq bilan mutolaa qilardik. Matbuotga qiziqqanligimiz bois Muhiddin Jo'rayev (hozir «Sadoqat» gazetasi muharriri), Hasan

Tilakov, Sayfulla Ashurov, Ne'mat Odilov, Rahmatillo Shoqulov kabi yosh muxbirlar deb tanilgan tengdoshlarimiz qatori tuman gazetasiga turli mavzularda xat-xabarlar yo'llab turardik.

Hech esimdan chiqmaydi, 5-sinfda o'qirdim. O'zimcha xandalar yozdim-da, xatjildga solib, pochta orqali Toshkentga – «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga jo'natdim. Yozganlarim chiqdimikan, deya gazetaning yangi sonlarini sabrsizlik bilan kutaman. Kunlarning birida Maymanoq aloqa bo'limining boshlig'i bo'lib ishlayotgan otam har galgidek ishdan kelib, gazetalarining yangi sonlarini qo'limga tutqazdilar-da, «Bu ham senga», deya odatdagi xatjildlardan farqli o'laroq – hoshiyasiz gazetaning belgisi tushirilgan chiroyli xatjildni uzatdilar. Shu kezda quvonchimning cheki yo'q edi. Hayajon bilan mening nomimga yuborilgan maktubni o'qishga tushdim. Unda: «Hurmatli A.Ayizov! Yaxshi yumordagi voqeani har gal eslaganingizda, beixtiyor kulib yuborasiz. Sizning bizga yo'llagan xandalarinizda xuddi shu narsa yetishmaydi. Bizga yozib turing. Salom bilan adabiyot bo'limining mudiri H.Imonberdiyev», deb yozilgan edi. Sevimli shoirimiz Hamza Imonberdiyevning yozganlarimni o'qib, erinmasdan olis

qishloqdagi notanish o'quvchiga javob xati yo'llashidan qattiq ta'sirlandim. Matbuot meni beixtiyor yana o'z og'ushiga tortdi. Maktubni ko'ylak cho'ntagimga solib g'ururlanib yurdim. O'shandan keyin maktab hayotidagi lavha va maqolalarim «Tong yulduzi»da chop etilib turdi. Shuningdek, boshqa bir qancha matbuot nashrlarida ijod namunalarimga joy ajratilganida, «Otam yodi» she'rlar to'plami va O'zbekiston xalq yozuvchisi Ne'mat Aminov so'zboshisi bilan chop etilgan «Bir gap bo'lar» hajviy hikoyalar to'plamimni har gal qo'limga olganimda, o'sha unutilmas maktubdagi so'zlar bot-bot yodimga tushadi.

Chin yurakdan aytсам, «Tong yulduzi» gazetasi men uchun qadrdon bo'lib qolgan.

**Abdulla AYIZOV**



## OLOVYURAK ZARGARDAN

Gapim eshiting, do'stlar,  
Jilovlanar qancha zar.  
Mudom ularga dildan,  
Mehr beradi zargar.

Ishonmasangiz menga,  
Uning ishin ko'ringlar.  
Ustaxonasi ichra,  
Bir kun mehmon bo'linglar.

Zar qadrini neligin,  
Anglaysiz bu safardan.  
Mehnatni ulug'lagan,  
Olovyurak zargardan.

Komiljon MAMATOV,  
Kasbi tumanidagi  
14-maktabning  
7-«A» sinf o'quvchisi



## BAHORROYGA YETDIK BIZ

Guldan nafis go'zal hislar,  
Yuraklarga solib izlar.  
Qo'l ushlab yigit-qizlar,  
Ko'klamoyga yetgani rost.

Chug'urlagan qaldirg'ochlar,  
Mag'rur turar qayrag'ochlar.  
Rayhon ilib qora sochlar,  
Qoshi yoyga yetgani rost.

Chechaklardan taqib tumor,  
Mast ayladi dilni xumor.  
Borliq bo'lib biram dildor,  
To'lin oyga yetgani rost.

Bodroq sochar bodomxonlar,  
Bog' sayrida g'azalxonlar.  
Ne'mat to'la dasturxonlar,  
Qutlug' joyga yetgani rost.

Guldan nafis go'zal hislar,  
Yuraklarga solib izlar.  
Qo'l ushlab yigit-qizlar,  
Bahoroyga yetgani rost!

Lochin ELMATOV,  
Chiroqchi tumanidagi  
147-umumta'lim maktab o'qituvchisi



## DONOLARDAN SO'RAB OL

Dunyo ishi to'xtamaydi,  
Kajraftor zir aylanar.  
Birov kelib, birov ketar,  
Kunlar kunga boylanar.

Bolalikda orzuing ko'p:  
Dilni osmon chog'larsan.  
Ba'zan mayda tashvishlarga  
Keng ko'nglingni bog'larsan.

Boshga qo'nsa o'mad qushi,  
Uni silkib quvarsan.  
So'ngra bo'zlab afsus chekib,  
Yuzning yoshla yuvarsan.

Boylik, yoshlik bir mehmondir,  
Ketar qo'lning kiridek.  
Faqat qalbda imon mangu  
Qolgay quyosh nuridek.

Bu so'zlarni Ergash aytar,  
Dunyo ahli quloq sol.  
Men ayrganim kam bo'lsa gar,  
Donolardan so'rab ol.

Ergash ZOYIR,  
Kasbi tumani, Maymanoq qishlog'i



## TINCHLIK SO'ZI YANGRAYDI

Borliqqa ko'tarib bosh,  
Zarrin nur sochar quyosh,  
Yer yuzini yoritib  
Bizga bo'ladi sirdosh.

Tongda qushlar sayraydi,  
Yaxshilikni kuylaydi.  
Tengdoshlarim qalbida  
Tinchlik so'zi yangraydi.

Latofat XOLIQOVA,  
Yakkabog' tumani,  
Daryo qishlog'i

## QUYOSHSAN, MAKTAB!

Senga o'tdi bolalik chog'im,  
O'sha sinf, o'sha arg'imchoq.  
Yuragimda qat-qat bog'larim,  
Sho'xliklarga guvohsan, maktab,  
Sen yerdagi quyoshsan, maktab.

Oqib o'tar bag'ringdan anhor,  
Anhordan suv olmagan kim bor.  
Sen onamdek aziz, beozor,  
Kelaqolgin dedingmi, maktab,  
Sen yerdagi quyoshsan, maktab.

Yoshimga ham qo'shilyapti yosh,  
Qani o'sha sho'xlik va sirdosh.  
Qalbm ichra otganda quyosh,  
Gullayvergin go'zal maktabim,  
Har bir kuni g'azal maktabim!



Zubayda NAZAROVA,  
Qamashi tumani, Qamashi agrobiznes  
kollejining II bosqich talabasi

## DO'STIM

Shiddatkorsan, quvnoqsan, do'stim,  
Ulg'ayarsan baxtiyor, bekam.  
Yur, bog'larga chiqaylik bugun,  
Izlab keldi bizlarni ko'klam.

Hayot degan zahmatli turmush,  
Kamlarini etmoq uchun but.  
Kerak endi yonmoq, yondirish,  
Ostonada baxt turmas kutib.

Dilnavoz BERDIYEVA



(Rivoyat)

# OQSARROY

Ulug' Amir o'z ona shahri bo'lmish Shahrisabzda ulug'vor bino bunyod etmoqlikni niyat qilibdi va mamlakatning bosh me'morini huzuriga chaqirib, fikrini bayon etibdi. Bosh me'mor davlat xazinasiga kirishga ijozat so'rabdi. Uning bu gapiga qiziqqan Ulug' Amir «Bu qanday karomat ko'rsatarikin?» deb xazinaga kirishga ruxsat beribdi. Bosh me'mor Sohibqiron Hazratlarining ko'zi oldida loy va tillalarni aralashtirib, g'isht yasabdi. Ularni bo'lajak bino poydevori uchun ishlatishini aytib, Ulug' Amirni kuzatibdi. Sohibqironni juda xotirjam va mamnun ko'rib, g'ishtlarni sindirib, tillalarni xazinachiga uzatibdi. – Nega bunday qilding? – deb so'raganlarida: – Ulug' Amirimizning go'zal va betakror imorat barpo etish istagi qanchalik kuchli ekanligini bilishim kerak edi, – deya javob qilibdi. Shundan so'ng, bosh me'mor Oqsaroy qurilishini boshlagan ekan.

NARGIZA

– Farhod aka, bolajonlarimizga sport maktabida ta'lim-tarbiya olayotgan tengdoshlari va murabbiylar jamoasi haqida gapirib bersangiz...

– Maskanimizda futbol, voleybol, kurash, dzyudo, yengil atletika, shaxmat, shashka, boks, mini-futbol, badiiy gimnastika to'garaklarida 655 nafar o'g'il-qiz mashg'ulotlarda qatnashmoqda. Ularga 16 nafar murabbiylar saboq beryapti. Shaxmat bo'yicha Abdukamol Ergashev, Abdurahmon Nodirjonov, kurash bo'yicha Bahridin Yormatov, Shuhrat Orolov kabi ustozlar bo'lajak chempionlarni tarbiyalashda samarali mehnat qilishyapti.

Badiiy gimnastika to'garagi yangi tashkil etildi. Ayni paytda oltita guruhda 72 nafar qizlarimiz badiiy gimnastika mashg'ulotlarida saboq olmoqdalar. O'tgan yili «Bolalar sportini rivojlantirish» jamg'armasi tashkil topganining sakkiz yilligi munosabati bilan ilk musobaqamizni ham o'tkazdik. Jamg'armaning tuman yoshlariga kurash tatamisi, badiiy gimnastika gilami va to'rtta stol tennisi jamlanmasini sovg'a qilishi

# CHIROQCHINING CHEMPIONLARI

**Tumanda bolalar sportiga e'tibor qanday? 1-BO'SM (Bolalar va o'smirlar sport maktabi) direktori Farhod aka Jumanov bilan suhbatimiz shu haqda bo'ldi.**

o'quvchilarimiz uchun ajoyib tuhfa bo'ldi.

– Albatta, bunday yutuqlar sportchi va murabbiylarni ruhlantirishi tabiiy...

– O'rda qolgan 2010-yil tumanimiz sporti uchun barakali yil bo'ldi. Avvalo, «Chiroqchi» futbol jamoamiz viloyat birinchiligi va kubogi bahslarida billur sovrinni qo'lga kiritdi. Eng quvonarli g'alabamiz Xitoyning Guanchjou shahrida o'tgan

XVI Osiyo o'yinlaridagi yutuqlarimiz bilan bog'liq. Sport maktabimiz tarbiyalanuvchisi Nodira Nodirjonovaning ayollar o'rtasidagi shaxmat bo'yicha jamoaviy bahslardagi kumush medali ham faxrimizga faxr qo'shdi. Xolida Namozova va Suvonqul Saidovning respublika shaxmat musobaqalaridagi munosib o'rinlaridan yanada g'ururlandik.

Charm qo'lqop bo'yicha ustalarimiz Shohjahon Shodmonov, Husain Gaimov, Shohjahon Ulashmurodov o'z vazn toifalarida mamlakat birinchiligi musobaqasida g'olib chiqib, Chiroqchida ham yaxshi bokschi ham kamol topayotganligini isbotlashdi.



## BIRODAR BOBOMGA XAT

Mamlakatimizning sobiq afsonaviy futbol yulduzi **Birodar ABDURAIMOV**ga Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumanidagi 85-maktabning 8-sinf o'quvchisi **Birodar TOSHBOYEV**dan maktub keldi.

Assalomu alaykum Birodar bobo! Men sizni barcha o'rtoqlarimdan ham yaxshiroq bilaman. Sababi, mening otanam sizga havas qilib, ismimni Birodar deb qo'yishgan. Albatta, sizning o'yinlaringizni ko'rmagan bo'lsam-da, otam xuddi ko'rgandan ham ziyoda qilib ko'p-ko'p so'zlab beradilar. Men sizdek mashhur futbolchi bo'lishni niyat qilaman. Shuning uchun ham maktab, tumanimizda o'tkazilgan musobaqalarda faol ishtirok etib kelyapman. Maktab direktori, sinf rahbari va jismoniy tarbiya o'qituvchim yordamida erishayotgan yutuqlarimdan quvonaman.

Birodar bobo! Ayni damda qanday ishlar bilan mashg'ulsiz? Siz bilan «Tong yulduzi» sahifasi orqali suhbatlashgim keldi.

## Omad bizga boqdi

**Javohir AVLIYOQULOV**, Qarshi tumanidagi 24-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi:

– Maktab o'quvchilarining Olimpiadasi bu «Umid nihollari»dir. Unda ishtirok etishni juda xohlaymiz.

Maqtansak arzigulik bir ish qildik. Maktabimizning voleybolchi bolalar jamoasi «Umid nihollari»ga tayyorgarlik bosqichida g'olib deb topildi. G'oliblikni mehnatimiz evaziga topganimizdan xursandmiz. Navoiyda o'tadigan «Umid nihollari –2012» sport musobaqalarida oltin medal olishga harakat qilamiz.

Bo'ynida shoda medallari, qo'lida bir necha «Maqto'v yorliq»lari, ko'nglida olam-olam orzulari bor tengdoshingiz Maftuna Qo'shimova sport gimnastikasi bo'yicha chempion qizaloq. U Qarshi Davlat ixtisoslashtirilgan 1-umumta'lim maktabining o'quvchisi. Chempionlik zavqi Maftunani katta maydonlar sari yo'l olishga undaydi. Oq yo'l senga, Maftuna!

## Maftunaning zavqi



## Dastlabki yutuq

«Vovinam Vet Vo Dao» jang san'ati Asliddin Shoniyozovning yaxshi sportchi darajasiga ko'tarmoqda. Mashg'ulotlar murakkab bo'lsa-da, Asliddinning qiziqishi oldida chempionlik qad rostlab kelayotgandek... Mana, u dastlabki yutuq'ini qo'lga kiritdi. Viloyat ochiq chempionati uni 1-o'ringa loyiq deb to'fadi. Chindan ham tengdoshingiz bu nomga sazovor bo'lishga arziydi.



**«QASHQADARYO DIYORI»  
TOPSHIRIQLI AYLANMA SKANVORD**

Javoblar shaklida belgilangan sonlardan soʻzlar taʼrifi yozilgan aylana atrofiga soʻz mili yoʻnalishida yoziladi. Skanvordni halʼ eigandan soʻng, shaklning oʻrta qismidagi raqamlarni javob soʻzlari yozilgan raqamli xonalardagi mos harflar bilan almashtirib, topshiriqni hal eting. Bunda ulardan *Sohibqiron Amir Temur Shahrisabzda banyod ettirgan Oqsaroy mahabbati meʼmoriy obidasi boʻrsida oʻrta asr tarixchisi Sharofiddin Ali Yazdiy yozib qoldirgan taʼrifni bilib olishga muvaffaq boʻlasiz.*

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

1 Futbol jamoa  
2 Tojiddin ... (xonanda)  
3 Juma-niyoz ... (shoir)  
4 Shahar-ga nom-dosh tuman  
5 Zamira ... (xonanda)  
6 Shomur-rod baxshi ...  
7 Sport oʻyini  
8 Suv ombori  
9 Neft, gaz koni  
10 Teatr studiyasi  
11 Chegara radosh viloyat  
12 Choʻl hududi  
13 Chorva tarmogʻi  
14 Suv ombori  
15 Xozirgi Sayxun  
16 Qum-qoʻrgʻon-Boysun (temir yoʻli)  
17 Qama-shiga chegara tuman  
18 Viloyat tumani  
19 Folklor dastasi  
20 Chorva mahsuli, moʻyna  
21

## TAVSIYALAR

Sabzavotlarni yaxshi koʻradigan kishilar koʻpchilikni tashkil qiladi. Ammo ulardan koʻp hosil olish yoʻllarini hammayam bilavermaydi. Nishonlik ustozning jajji maqolasidagi maslahatlari foydadan xoli emas, deb bildik.

Bodringning meva gullari koʻpayishi uchun bodring palagi barglariga bor kislotasi eritmasi purkalsa, hosildorlik ancha oshadi.

Pomidor urugʻini kaliy permanganatda (margansovkada) ivitilsa, oʻsimlikning kasalliklarga chidamliligini va Mp-mikroelementiga boʻlgan talabni qondirish mumkin. Bu eritma boshqa sabzavodarga ham qoʻllanishi mumkin. Formalin eritmasi ham

shunday samara beradi. Kartoshkani noʻxat bilan birga qoʻshib ekish bu ikki oʻsimlik uchun hosildorligini oshishiga olib keladi. Faqat noʻxatni yaxshi oʻsishi uchun nitragin bakterial oʻgʻiti yoki oʻtgan yili noʻxat ekilgan maydon tuprogʻini olib kelib yuqtirish kerak.

Oʻsimliklar ichida eng koʻp nitratlarni oʻziga toʻplaydigan ismaloqdir. Shuning uchun ismaloqqa ammiakli selitra oʻrniga karbamid oʻgʻitidan foydalanish mumkin.

Agar oʻsimlik urugʻlariga ultra-tovush yordami bilan islov berilsa, oʻsimlikning hosildorligi oshishi bilan birga, kasalliklarga chidamli boʻlishi aniqlangan.

**Abdusattor DAVRONOV,**  
Nishon tumanidagi 10-umumtaʼlim maktabining kimyo fani oʻqituvchisi

**Mazkur sonni tayyorlashda yaqindan yordam koʻrsatganliklari uchun Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi, Axborot xizmati rahbari J.Musayevga, Qashqadaryo viloyat Xalq taʼlimi boshqarmasiga oʻz minnatdorchiligini bildiramiz.**

## Maxsus sonni tayyorlaganlar:

T.HAYI,  
RADILOVA,  
YUABDULLAYEV,  
A.AYZOV,  
A.KARIMOV,  
M.MADRAHIMOVA,  
GORFJONOVA,  
M.UBAYDULLAYEVA,  
NABDULLAYEVA,  
F.MATYOQUBOV,  
E.SHOYDOROV,  
Z.MAMATQULOVA.

BOSH MUHARRIR:  
Toʻlqin HAYITOV

Dizaynerlar:  
Fazliddin SHOYODGOROV,  
Olovuddin ORIPOV  
Navbatchilar:  
Axtamqul KARIM,  
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda roʻyxatdan oʻtgan.

TAHIR HAY'ATI:  
Avaz MARAHIMOV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruz JALILOVA  
(Bosh muharrir oʻrinbosari),  
Feruz ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

## Manzillimiz:

Toshkent shahri,  
Navoiy koʻchasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@bk.ru  
www.tongyulduzi.uz  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel/faks:  
(99871) 244-38-10



Manzura UBAYDULLAYEVA tayyorladi

## KULGIXONA



## ENG MASHHUR YIL

Ustoz tarix darsida Farruxdan soʻradi:

– Tarixning eng mashhur yili qaysi?

– 1992-yil...

Ustoz shoshib qoldi:

– Bu yilda nima boʻlgan?

– Men tugʻilganman, ustoz, – dedi Farrux zavqlanib.

## QAYSI SUT...

Ustoz oʻquvchilardan soʻradi.

– Aying-chi, bolalar, biz qaysi hayvonlarning sutini ichamiz?

– Sigirning.

– Qoʻyning.

– Echkining.

Navbat Zaynabga keldi:

– Biz sutchining sutini ichamiz, – dedi.

TONG  
yulduzi

## Muassislar:

Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOGʻLOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli boʻlgan Xalqaro xayriya jamgʻarmasi.

«Oʻzbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qoʻlyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi - 69567 Buyurtma N: J 1106